

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA INGLIZ TILIDAGI TIL KO'NIKMALARINI SAMARALI OSHIRISH USULLARI VA STRATEGIYALARI

*M. Yalg'osheva*¹

Annotatsiya:

Xorijiy tilni o'rganish rivojlangan texnologiya asrida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Chet tilini tez va oson qisqa muddat ichida o'rganish ustida jahonda va mamlakatimizda ko'p tilshunos-olimlar izlanish olib bormoqda. Quyidagi tezisda chet tili, ya'ni ingliz tilini samarali o'rganish strategiyalari haqida so'z boradi va individual yondashgandagi til ko'nikmalarini tezda oshirish usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: behaviorism, cognitivist, kognitiv, metakognitiv va ta'sirchan strategiyalari.

doi: <https://doi.org/10.2024/7nhx1a27>

Hozirda ingliz tilida so'zlash qobiliyatiga ehtiyoj judayam katta, bunga asosiy sabablardan biri bu ingliz tilini dunyoning rivojlanishiga hissa qo'shganligidir. Bu esa o'z navbatida nutq qobiliyatini taqdim etishga bo'lgan talabni oshiradi. Ingliz tilini o'rganish turli maqsadlar uchun xizmat qiladi. Masalan, O'quv faoliyatida ma'lum sabablarga va vaziyatlarga ko'ra, o'quv dasturi talabi, jamoa orasida maqsadli tilga o'tish, muayyan maqsad talabini bajarish va hokazo. Richard va Renandyaning fikriga ko'ra, chet tilida gapirishni o'rganish ko'proq narsani talab qiladi, ya'ni, o'sha tilning grammatik va semantik qoidalarini bilishlik. Ingliz tili chet tili bo'lgani uchun uni bajarish va to'liq o'rganish shart. O'rganish nazariyasi uchun turli mutaxassislar tilning turli usullarini taklif qilishgan.

Birinchi usul bu- "behaviorism." Unga ko'ra tilni mohiyatan odatni takrorlash orqali shakllantirish va kuchaytirishdir. Bu usul o'rganishning uchta bosqichini taklif qildi. Bular: taqdimot, amaliyot va ishlab chiqarish (Tornberi, 2005:38). Bu jarayon avtomatik odatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu orqali til ko'nikmalarini, shu jumladan sinfdagi amaliyot va o'zaro ta'sir orqali gapirishni tashkil qilishni, modellashtirishni takrorlaydi va uni mustahkamlashga yordam beradi.

Ayrim tilshunos olimlar boshqa tomondan, "cognitivist" o'rganishni kompleks sifatida ko'radi. Behaviorism ni qo'llash avtonomiyaga erishish bosqichi bo'yicha birinchi hisoblanadi. Cognitivist usul esa ijtimoiy aqliy funksiyaga ko'ra ustuvorlik qiladi. O'rganish ijtimoiy va madaniy vositachilik bilan amalga oshiriladi. Til o'rganishning turli nazariyalari bo'lmaydi, balki turli arziqli strategiyalari bo'ladi. Til o'rganuvchilar uchun muammo boshlang'ich bosqich sifatida ko'riladi, chunki u

¹ *Yalg'osheva Mohichehra Olimovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası tayanch doktoranti*

bosqichda juda ko'p ma'lumot o'rganilishi kerak bo'ladi. Richard va Renandiya (2002:121) til o'rganish strategiyalarini ba'zi toifalarga ajratadi:

Birinchisi bu- kognitiv strategiya. Bu aniqlash, saqlash, va til elementlarini qidirish. Til o'rganishda, talabalar ularni eslab qolishni osonlashtiradigan xotiradan foydalanadilar va ular o'rganayotgan tilni shu orqali tez tushunadilar.

Yangi so'zlarni eslab qolishlariga yordam beradigan "kalit so'z usuli" ham bu strategiyada samarali ishlaydi.

Ikkinchi strategiya bu- Metakognitiv. U rejalashtirish, monitoring va til o'rganish faoliyatini baholashdir. Buni til o'qituvchilari yoki talabalarning o'zlari tomonidan monitoring olib borib amalga oshirish mumkin. Bunda talabalarning ta'lim yutuqlarining rivojlanishi va ularni taqqoslash o'quv rejasida ko'rsatilgan kurs maqsadlari sifatida qabul qilinadi.

Uchinchi strategiya- Ta'sirchan strategiya. Bu motivatsiya, his-tuyg'ularni tartibga solish uchun xizmat qiluvchilar va tilni o'rganishdagi munosabatlar tomonidan o'tkaziladi. Bunda muhabbat ilgari suriladi, ya'ni o'quvchilarning til o'rganish istagini oshirish muhimdir.

Tilni o'rganish so'zlasha olishga qaratilgan maqsadli til va aytib o'tilgan strategiyalar o'quvchilarga yordam beradi va ta'lim yutuqlarini osonlashtiradi. Biroq, tilda gapirish ayniqsa chet tilini o'rganuvchilar uchun qiyin, chunki bunda

samarali og'zaki muloqotdan foydalanish qobiliyati talab qilinadi. Shunday qilib, biror tilda gaplashish uchun qanday qilib gapirishni bilish kerak, til muayyan ijtimoiy kontekstda qo'llaniladi.

Ta'sirchan omil o'quvchilarning og'zaki muloqot qobiliyatiga ham ta'sir qiladi. Bu tuyg'u, o'z-o'zini hurmat qilish, empatiya, tashvish, munosabat bilan bog'liq motivatsiyadir. Hozirda metodologiyada to'rt jihat ajratiladi:

tarbiyaviy amaliy jihat;

tarbiyaviy jihat;

rivojlanish jihati.

ta'limning amaliy jihati.

Demak talabalar qachonki til aloqa vositasi sifatida undan og'zaki hamda yozma shakllarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganlarida chet tillarini mukammal egallaydilar. Amaliy jihat-muloqotning barcha shakllarini va barcha nutq funksiyalarini egallashni o'z ichiga oladi. Ta'limning tarbiyaviy tomoni ta'limni o'z ichiga oladi, uning barcha ko'rinishlarida axloq asosiy rol tutadi. Tarbiyaviy jihat o'rganilayotgan til mamlakatlarining madaniyat haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi, jumladan adabiyot, musiqa, arxitektura, rasm, tarix, tilning tuzilishi, tizimi, xarakteri haqidagi bilimlar, ona tili bilan o'xshashlik va farqli xususiyatlari, interferentsiya kabilar. Rivojlanish jihati ifoda vositalaridan xabardorlikni ta'minlaydi. Jumladan, fikrlar, odamlar qanday talaffuz qilishlari, qanday so'zlarni ishlatishlari, obyektlar nominatsiyalari, mahalliy va chet tillarini taqqoslash, til tuyg'usini rivojlantirish, lingvistik taxminlar, xotira, uning barcha turlari, mantiq (tahlil, sintez, taqqoslash, xulosa), hissiy idrokni, motivatsion sohani, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish; mehnatsevarlik, iroda, qat'iyat kabi xarakter xususiyatlari, faollik, o'rganish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Ta'lim amaliy va tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ta'lim - rivojlanish maqsadlari shakllanish bilan bog'liq bo'lishi kerak, fanlararo yoki fanlardan tashqari ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish bilangina aqliy qobiliyatlar yuksaltirish mumkin.

Shunday qilib, chet tilini o'qitish maqsadining barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'langan va bir-birini shart qilib qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Harmer, Jeremy. (2007). *How to Teach English*. England: Pearson Education Limited Leo,
- [2]. Sutanto. (2013). *A Challenging Book to Practice Teaching in English*. Yogyakarta:
- [3]. Andi Richard, Jack C. and Willy A. Renandya. (2002). *Methodology in Language Teaching: An ontology of current teaching*. Cambridge: Cambridge University Press
- [4]. Гальскова Н.Д. *Современная методика обучения иностранным языкам*: М.: Глосса, Москва, 2000.
- [5]. Гез Н.И., Ляховицкий М.В., Миролубов А.А. и др. *Методика обучения иностранным языкам в средней школе*. М., 1982.
- [6]. Botirova A.A., Solovova E.N. *Chet tillarni o'qitish metodikasi. Murakkab kurs: darslik*. - 4-nashr. - M-T.: AST-Astrel, 2020.
- [7]. Berman I. M. (2020) *Reading as a subject of education and as a psycholinguistic process*. - In the book: *Methods of teaching a foreign language at the university*.